

Ustoz - qadri buyuk muallim

Uzoq yillar instimizda ishlab respublikamizga minglab kadrlar yetishtirishda o'z hissasini qo'shgan, yosh avlodni bilim olish bilan birga yuqori imtiyozli raqobatbardosh malakali mutaxassis bo'lishida va jonajon vataniga sidqidildan o'z mehnatini ayamay kelgan texnika fanlar nomzodi Nurmatov Erkin Xayitmatovich bu yil 82 yoshni qarshi oldilar. Shu munosabat bilan "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti "Geodeziya va geoinformatika" kafedrasi professor-o'qituvchilari ustozni tabriklash uchun ularning xonardonlariga tashrif buyurishdi. So'ngra ular institutimiz rahbariyati va fakultetimiz jamoasi nomidan o'z tabriklarini yetkazishdi.

Shu tobda ushbu nazmiy bitik dilga keladi:

Ustoz - qadri buyuk muallim!!!

Deydilar dunyoda asli kim aziz?

Aytdilar ustozdir, ustoz begumon

Tag'in dedilarki, aziz shubhasiz

Ustozin qadriga yetolgan inson.!!!



TIQXMMI matbuot xizmati